

TILLARNI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT

Qo'qonov Abdujalil,
2324-guruh, 3-ingliz tili fakulteti
Ilmiy rahbar: Ziyayeva Muhayyo

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt vositalarining chet tillarini o'rganishdagi roli, imkoniyatlari va kamchiliklari tahlil qilindi. Metod sifatida amaliy kuzatuvlar va tahlillar qo'llanilgan. Asosiy natijalar shundan iboratki, sun'iy intellekt vositalari til o'rganishda moslashuvchan va samarali muhit yaratadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til o'rganish, texnologiya, ta'lim, onlayn platforma

Bugungi kunda deyarli barcha sohalarda sun'iy intellektning ahamiyati ortib bormoqda. Ta'lim tizimida ham undan oqilona foydalanish, shubhasiz, yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shuningdek, chet tillarini o'rganishning samarali muhitini yaratishga juda katta hissa qo'shishi mumkin. Ushbu maqolada men sun'iy intellekt yordamida chet tillarini o'rganishning afzalliklari va istiqbollari yoritib bermoqchiman.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - sun'iy intellekt texnologiyalarining chet tillarini o'rganishga bo'lgan ta'sirini aniqlash hamda ularning amaliy qo'llanilishini o'rganish.

Tadqiqotda Duolingo, Babbel, TalkPal, ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosidagi ilovalar tahlil qilindi. Ushbi onlayn til o'rganish platformalari interaktivlik, shaxsiylashtirish va real vaqtdagi tahlil kabi jihatlari orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, til o'rganuvchilar sun'iy intellekt yordamida o'zlariga mos tarzda va xatolar ustida ishlash imkoniyati bilan samarali ravishda chet tillarini o'rganishlari mumkin. Ayniqsa, chat-botlar bilan suhbatlar orqali so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin, chunki ularda xatolarni real vaqtda kuzatish va tuzatib o'rganish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanadigan til o'rganish platformalari o'quvchilarining kuchli va kuchsiz tomonlari, o'rganish tezligi va qiziqishlarini tahlil qilib, ular uchun shaxsiylashtirilgan o'quv reja tuzish qobiliyatiga ham ega.

Bunday turdagi ilovalar butun dunyo bo'ylab har qanday vaqtda, har qanday joydan turib darslarga qatnashish va mashqlar bajarish imkoniyatini beradi.

Sun'iy intellektning ta'lim tizimi uchun foydalaridan yana biri shundaki, uni an'anaviy o'quv metodlariga yordamchi sifatida qo'llash mumkin. Masalan, o'qituvchilarga turli dars rejalarini tuzish, o'quvchilarning natijalarini tahlil qilish

va ko'proq e'tibor talab qiladigan jihatlarni aniqlashga yordam berish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

Vanihoyat, muammo shundaki, sun'iy intellekt hali mukammal emas - grammatik aniqlik va mazmuniy tushunish nuqtai nazaridan ba'zi kamchilik va cheklovlarga ega. Tilni o'zlashtirish murakkab jarayon bo'lib, u sun'iy intellekt tushuna olmasligi mumkin bo'lgan madaniy va nozik og'zaki aloqa belgilarini o'z ichiga oladi. Biz hali sun'iy intellekt og'zaki nutqni yaxshi biladigan darajaga yetganimiz yo'q, shuning uchun uning til o'rgatishdagi qobiliyati muayyan holatlarda hozircha cheklangan. Shunga qaramay, tog'ri foydalanilsa, o'qituvchilar uchun samarali yordamchi bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt - bu til o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar eshigini ochuvchi kuchli vositadir. Kelajakda bu texnologiyalar yanada mukammallashib, ta'lim sifatiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://www.pearson.com/languages/community/blogs/2023/12/ai-and-language-learning.html>